


O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim tizimi (2019/2020 o‘quv yili boshiga)

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi, boshlang‘ich (I - IV sinflar), tayanch o‘rta (V-IX sinflar) hamda umumiy o‘rta ta‘lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo‘lib, kunduzgi ta‘lim shaklida faoliyat yuritadi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko‘plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o‘rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o‘rta ta‘lim tizimi qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta ta‘lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta‘lim negizida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida 2019/2020 o‘quv yili boshiga jami umumta‘lim muassasalari soni 10090 tani tashkil etdi va ulardan 91 tasi xususiy mulkchilik shaklidagi umumta‘lim muassasalari hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



Umumta‘lim muassasalari soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 316 taga ko‘payib, xususiy mulkchilik shaklidagi umumta‘lim muassasalari soni 34 tani tashkil etdi.




Umumta'lim muassasalarining turlariga ko'ra taqsimlanishi

Umumta'lim muassasalari soni jami 10090 ta, shundan:



O'zbekiston Respublikasida umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: bular boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2019/2020 o'quv yili boshiga kelib umumiy umumta'lim muassasalarining 9963 tasini umumiy o'rta ta'lim maktablari, 37 tasini boshlang'ich maktablar va 90 tasini boshqa muassasalar tashkil etdi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 6137,5 ming, boshlang'ich muassasalarda 5,2 ming va boshqa muassasalarda 21,7 ming nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.


Umumta'lim muassasalarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Umumta’lim muassasalarida sinflar bo‘yicha o‘quvchilar soni, ming kishi

(2019/2020 o‘quv yili boshiga)


	O‘quvchilar soni jami	shundan:										
		1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf
O‘zbekiston Respublikasi	6146,3	616,5	614,6	629,0	639,2	623,4	581,7	536,8	505,0	491,4	452,2	456,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	344,3	35,6	34,2	35,6	36,4	35,6	33,1	29,1	27,6	27,3	24,6	25,2
<i>viloyatlar:</i>												
Andijon	556,8	56,0	54,3	61,3	63,2	58,1	53,9	47,4	43,8	40,2	37,9	40,7
Buxoro	325,9	32,6	31,3	32,2	32,7	31,5	29,1	29,0	28,6	27,6	25,4	25,9
Jizzax	257,6	24,7	24,6	25,5	26,6	26,1	23,7	22,9	21,9	21,5	19,8	20,3
Qashqadaryo	627,7	64,4	61,6	62,7	62,2	62,2	56,8	55,1	52,9	52,1	49,8	47,9
Navoiy	178,6	17,6	17,5	17,9	17,6	17,3	17,7	16,3	15,2	14,8	13,4	13,3
Namangan	500,4	50,3	50,5	47,8	52,4	55,7	48,8	40,4	39,9	39,2	37,3	38,1
Samarqand	720,0	73,3	74,2	75,0	75,3	72,5	66,7	63,8	57,2	56,1	52,0	53,9
Surxondaryo	495,1	50,9	51,7	49,9	49,7	49,2	44,8	42,2	39,6	39,2	39,0	38,9
Sirdaryo	156,5	15,1	15,4	16,1	16,8	16,2	15,1	14,2	12,3	12,1	11,6	11,6
Toshkent	508,3	50,4	50,8	52,9	54,3	50,9	48,4	43,8	42,2	41,8	36,7	36,1
Farg‘ona	664,3	66,1	67,0	70,2	66,7	64,6	63,9	59,8	55,6	53,3	48,8	48,3
Xorazm	352,0	32,9	34,4	35,4	35,7	35,8	35,5	31,7	29,6	28,7	25,7	26,6
Toshkent sh.	458,8	46,6	47,1	46,5	49,6	47,7	44,2	41,1	38,6	37,5	30,2	29,7



2019/2020 o‘quv yili boshiga, umumta’lim muassasalarining birinchi sinfiga qabul qilingan o‘quvchilar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega hudud Samarqand, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi¹⁾

Smenalar bo'yicha mashg'ulot olib boradigan muassasalar ulushi, % da



2019/2020 o'quv yili boshiga, barcha ta'lim muassasalaridan bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 2422 ta (24,2 %), ikki smenada 7556 ta (75,7 %), uch smenada 10 ta (0,1 %) ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 4075,6 ming kishi, ikki smenada 2065,0 ming kishi, uch smenada 2,1 ming kishi tahsil olmoqda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida, birlikda¹⁾

	O'zbekiston Resp.	Qoraqalpog'iston Resp.	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg'ona	Xorazm	Toshkent sh.
Jami muassasalar, birlik	10000	725	768	544	551	1137	364	712	1252	917	310	878	951	552	339
<i>ulardan mashg'ulot olib boradigan:</i>															
bir smenada	2422	118	221	294	76	217	98	183	222	139	94	190	281	193	96
ikki smenada	7556	606	546	249	474	919	266	528	1025	774	216	688	669	359	237
uch smenada	10	1	-	-	1	1	-	1	-	4	-	-	-	-	2

¹⁾ Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablaridan tashqari, vaqtincha ishlamaydigan maktablarni qo'shgan holda

Umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning ma’lumoti bo‘yicha taqsimlanishi²⁾, % da



14,6 %



85,4 %



Oliy ma’lumotli o‘qituvchilar



O'rta ma'lumotli o'qituvchilar


	Oliy ma’lumotli o‘qituvchilarning jami o‘qituvchilar sonidagi ulushi, % da	O’rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchilarning jami o‘qituvchilar sonidagi ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	85,4	14,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	88,0	12,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	86,6	13,4
Buxoro	86,6	13,4
Jizzax	88,4	11,6
Qashqadaryo	89,4	10,6
Navoiy	75,4	24,6
Namangan	90,9	9,1
Samarqand	89,6	10,4
Surxondaryo	84,7	15,3
Sirdaryo	76,0	24,0
Toshkent	90,0	10,0
Farg‘ona	82,2	17,8
Xorazm	87,6	12,4
Toshkent sh.	87,4	12,6

2019/2020 o‘quv yili boshiga jami o‘qituvchilar 486,6 ming nafarni tashkil etib, ulardan 53,0%i qishloq maktablarida, 47,0%i shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasida bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 13 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi.



²⁾ o‘rindoshlarsiz

Umumta'lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



2019/2020 o'quv yili boshiga, umumta'lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo'yicha taqsimlanishida eng yuqori ko'rsatkich ona tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, jismoniy tarbiya, rus tili va adabiyoti fanlarida kuzatildi, o'quvchilar sonining ushbu fanlardagi ulushi boshqa fanlar o'qituvchilariga nisbatan yuqori ulushga ega.

Ma'lumot uchun: umumta'lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo'yicha taqsimlanishida, fanlar bo'yicha ta'lim bermaydigan rahbarlar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qo'shmagan holda.

Umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar sonini yoshlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi
(2019/2020 o‘quv yili boshiga)


	O‘quvchilar soni jami	Shu jumladan:										
		6 yosh	7 yosh	8 yosh	9 yosh	10 yosh	11 yosh	12 yosh	13 yosh	14 yosh	15 yosh	16 yosh va undan katta
O‘zbekiston Respublikasi	6146,3	75,0	603,1	607,9	623,1	635,3	620,7	581,7	535,3	503,6	493,2	867,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	344,3	4,0	35,4	33,3	35,3	36,4	35,4	33,2	30,2	27,7	27,8	45,6
<i>viloyatlar:</i>												
Andijon	556,8	10,6	54,6	54,1	59,5	62,2	58,7	53,4	46,5	43,9	40,9	72,4
Buxoro	325,9	7,3	31,6	31,1	32,4	32,7	30,9	28,9	29,1	28,4	27,1	46,4
Jizzax	257,6	1,2	24,4	24,2	25,2	26,6	26	23,7	22,8	22	21,5	40,0
Qashqadaryo	627,7	4,5	62,2	61,2	62,8	62,6	62,5	56,8	54,7	53	51,9	95,5
Navoiy	178,6	1,0	17,5	17,4	17,7	17,5	17,4	17,6	16,4	15,2	14,7	26,2
Namangan	500,4	6,7	48,9	50,2	48,6	50,6	53,3	49,1	40,5	39,9	39,8	72,8
Samarqand	720,0	5,3	70,7	73,0	74,5	74,9	73,3	66,5	63,7	57,4	56,3	104,4
Surxondaryo	495,1	2,1	50,4	51,5	49,4	50	49,4	44,6	42,1	39,6	39,3	76,7
Sirdaryo	156,5	2,7	14,6	14,9	15,7	16,4	16,1	15,2	14,1	12,5	12,4	21,9
Toshkent	508,3	7,9	49,6	49,9	51	53,7	51,1	49	44,3	41,4	41,8	68,6
Farg‘ona	664,3	7,0	64,4	66,2	69	66,5	64,8	64,8	58,8	55,2	54,2	93,4
Xorazm	352,0	3,0	32,5	34,1	34,9	36,3	35	34,9	31,4	29,4	29,1	51,4
Toshkent sh.	458,8	11,7	46,3	46,8	47,1	48,9	46,8	44	40,7	38	36,4	52,1

2019/2020 o‘quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsani bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz) umumta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 6 yoshli o‘quvchilar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri va Andijon viloyatida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich Jizzax va Navoiy viloyatlarida to‘g‘ri kelgan.



Umumta'lim muassasalarida 11 sinfni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, ming kishi


(2019/2020 o'quv yili boshiga)



2019/2020 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasida umumta'lim muassasalarining 11-sinfni tamomlaganlar soni 280,3 ming nafarni tashkil etgan. Respublikamiz bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Qashqadaryo viloyatida (32,5 ming nafar) va Samarqand (30,4 ming nafar) viloyatlariga to'g'ri keladi, Navoiy (10,5 ming nafar) va Sirdaryo (6,1 ming nafar) viloyatlarida eng kam ko'rsatkich qayd etilgan.



Umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, % da
(2019/2020 o‘quv yili boshiga)



2019/2020 o‘quv yili boshiga, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami umumta’lim muassasalarida 6146,3 ming nafar o‘quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz) ta’lim olayotgan bo‘lib, ulardan 3165,7 ming nafari (51,5%) o‘g‘il bolalar, 2980,6 ming nafari (48,5%) qiz bolalarni tashkil etadi.

Umumta'lim muassasalarida xorijiy tillar

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama manfaatli o'zaro hamkorligining yangi bosqichga ko'tarilishi jarayonida istiqbolli yoshlarni tayyorlash, yosh avlodga xorijiy tillarni, jumladan nemis va fransuz tillarini chuqur o'rganishlari uchun shart sharoitlar yaratish va ularning intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda yurtimizning nufuzini yanada yuksaltirishga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalash asosiy maqsadimizdir. 2019/2020 o'quv yili boshida mamlakatimizda 9986 ta umumta'lim muassasalarida o'quvchilar xorijiy tillardan saboq oladi. Shulardan, 9639 tasi ingliz tili, 1316 tasi nemis tili, 931 tasi fransuz tili umumta'lim muassasalarida tahsil oladi.

Xorijiy tillarini o'rganish bo'yicha umumta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda

(2019/2020 o'quv yili boshiga)

	Umumta'lim muassasalar soni	Ulardan ta'lim olib boriladigan chet tillari bo'yicha:						
		ingliz	nemis	fransuz	ispan	koreys	arab	boshqalar
O'zbekiston Respublikasi	9986	9639	1316	931	3	10	4	8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	726	718	62	47	-	-	-	-
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	768	744	115	58	-	1	1	1
Buxoro	543	505	76	84	-	2	-	1
Jizzax	551	545	22	28	-	-	-	-
Qashqadaryo	1137	1079	221	116	-	-	-	-
Navoiy	348	316	55	40	-	-	-	-
Namangan	712	712	83	67	-	-	-	-
Samarqand	1247	1167	261	162	-	-	-	-
Surxondaryo	917	876	112	51	-	-	-	-
Sirdaryo	310	307	9	18	-	-	-	-
Toshkent	878	865	53	37	-	-	-	1
Farg'ona	951	938	106	45	-	-	1	-
Xorazm	552	524	128	159	3	2	-	1
Toshkent sh.	346	343	13	19	-	5	2	4


Xorijiy tillarini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarini hududlar kesimida taqsimlanishi, ming nafar (2019/2020 o‘quv yili boshiga)

	Jami	Ulardan ta’lim olib boriladigan chet tillari bo‘yicha:						
		ingliz	nemis	fransuz	ispan	koreys	arab	boshqalar
O‘zbekiston Respublikasi	6149,6	5594,5	322,0	225,4	1	3,5	0,5	2,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	344,3	330,7	7,1	6,5	-	-	-	-
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	556,9	502,2	36,9	17,3	-	0,2	0,2	0,1
Buxoro	326,4	273,3	25,7	26,5	-	0,7	-	0,2
Jizzax	257,6	249,7	3,2	4,7	-	-	-	-
Qashqadaryo	627,8	552,9	45,9	29	-	-	-	-
Navoiy	177,6	159,2	9,2	9,2	-	-	-	-
Namangan	500,5	468,7	19,7	12,1	-	-	-	-
Samarqand	720,1	623,3	59,1	37,7	-	-	-	-
Surxondaryo	495,1	452,4	31,8	10,9	-	-	-	-
Sirdaryo	156,5	152,5	1,3	2,7	-	-	-	-
Toshkent	508,2	490,0	9,1	9,1	-	-	-	-
Farg‘ona	664,4	616,3	34,7	13,3	-	-	0,1	-
Xorazm	353,2	275,2	34,8	40,9	1	1	-	0,3
Toshkent sh.	461,0	448,1	3,5	5,5	-	1,6	0,2	2,1

2019/2020 o‘quv yili boshida mamlakatimizda 9986 ta umumta’lim muassasalarida (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablaridan tashqari) 6149,6 ming nafar o‘quvchi xorijiy tillaridan tahsil oladi. Shundan, 5594,5 ming nafari (91,0%) ingliz tili, 322,2 ming nafari (5,2%) nemis tili, 225,4 ming nafari (3,7%) fransuz tili, 7,7 ming nafari (0,1%) ispan, koreys, arab va boshqa xorijiy tillarni o‘rganishmoqda.


Ingliz tilini o'rganish bo'yicha, umumta'lim muassasalari o'quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi, ming nafar

(2019/2020 o'quv yili boshiga)



Respublikamizning umumta'lim muassasalarida 5594,5 ming nafar o'quvchi ingliz tilini o'rganmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatida 623,3 ming nafarni (11,1%), Farg'ona viloyatida 616,3 ming nafarni (11,0%) tashkil etgan bo'lsa, bu borada eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etilgan, ya'ni 152,5 ming nafar (2,7%) o'quvchi ingliz tilini o'rganmoqda.

Umumta’lim muassasalarida bitta o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar soni, birlikda




2019/2020 o‘quv yili boshida umumta’lim muassasalarida jami o‘qituvchilar soni 486,6 ming nafarni (o‘rindoshlarsiz) tashkil etdi, O‘zbekiston Respublikasida bitta o‘qituvchiga (o‘rindoshlarsiz) o‘rtacha 13 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Shulardan hududlar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida qayd etilib, unda bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 19 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida esa eng past ko‘rsatkich ya’ni bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 9 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelgan.



**Umumta’lim muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari
bilan ta’minlanganligi bo‘yicha dinamikasi, birlikda
(o‘quv yili boshiga)**

	2016/2017	2017/2018	2018/2019	2019/2020
Kompyuter sinflariga ega bo‘lgan muassasalar soni	9270	9251	9400	9685
Umumiy muassasalar soniga nisbatan % da	95,4	95,2	96,2	96,0
Kompyuter sinflari soni	16922	11821	12165	12630
ularda kompyuterlar soni, ming dona	166,6	169,3	176,4	184,9
“Har 1000 oquvchiga to‘g‘ri keladigan kompyuterlar soni	35	32	30	30
“ZiyoNet”ga ulanish imkoniyati bo‘lgan muassasalar soni	8661	8483	8357	8392



O‘zbekiston Respublikasida 2019/2020 o‘quv yili boshiga kompyuter sinflariga ega bo‘lgan umumta’lim muassasalar soni 9685 tani tashkil etgan bo‘lib, bu jami umumta’lim muassasalarning 96,0 %ini tashkil etadi. Ular 184,9 ming dona kompyuterlar bilan ta’minlangan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 ming donaga, ya’ni (4,8%)ga oshgan. 2017/2018 o‘quv yili boshida har ming o‘quvchiga 32 donadan kompyuterlar soni to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, joriy yilda 30 donadan to‘g‘ri kelgan.

Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi

71-230-80-69

71-230-81-62